Islom Karimov (1938-2016)



Islom Karimov (1938-2016)

Islom Abdug‘aniyevich Karimov 1938 yil 30 yanvarda Samarqand shahrida tug‘ilgan. O‘rta Osiyo politexnika instituti va Toshkent xalq xo‘jaligi institutini muhandis-mexanik va iqtisodchi mutaxassisliklari bo‘yicha tugatgan.

Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasida muhandis, yetakchi muhandis-konstruktor (1961-1966) bo‘lib ishlagan. 1966 yilda O‘zbekiston SSR Davlat plan komitetiga ishga o‘tib, mutaxassislikdan Respublika Davlat plan komiteti raisining birinchi o‘rinbosari lavozimigacha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tgan.

Islom Abdug‘aniyevich Karimov 1983 yilda O‘zbekiston SSR Moliya ministri, 1986 yilda O‘zbekiston SSR Ministrlar Soveti Raisining o‘rinbosari, Respublika Davlat plan komitetining raisi etib tayinlangan. 1986-1989 yillar mobaynida Qashqadaryo viloyati partiya komitetining birinchi kotibi lavozimida ishlagan. 1989 yilning iyunidan O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi kotibi etib saylangan.

1990 yil 24 mart kuni O‘zbekiston SSR Oliy Kengashining sessiyasida Islom Abdug‘aniyevich Karimov O‘zbekiston SSR Prezidenti etib saylandi. 1991 yil 29 dekabrda muqobillik asosida o‘tkazilgan umumxalq saylovida O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti etib saylangan.

Islom Karimov 1991 yil 31 avgustda O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e’lon qildi. 1995 yil 26 martda umumxalq Referendumida Karimovning Prezidentlik vakolati 1997 yildan 2000 yilgacha uzaytirildi. 2000 yil 9 yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bo‘lib o‘tdi. Ushbu saylovda Islom Abdug‘aniyevich Karimov yana O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti etib saylandi.

1994 yili Islom Karimovga O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi akademigi unvoni berilgan, shuning bilan, iqtisod, fan va ta’limni rivojlanirishga qo‘shgan ulkan hissasi uchun o‘ndan ortiq xorijiy mamlakatlar universiteti va akademiyalarining faxriy fan doktori, professori hamda akademligiga saylangan.

Islom Abdug‘aniyevich Karimov O‘zbekiston Qahramoni unvoni, «Mustaqillik» va Amir Temur ordenlari bilan taqdirlangan.

2023-09-25 22:36:40